

INGLIZ OILA HUQUQIDA FARZANDLIKKA OLISH MASALALARI

Sultonov Behzod Bahromjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 4-kurs talabasi

E-mail: sultonovb292@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ingliz huquqida farzandlikka olish jarayonining huquqiy asoslarini hamda amaliyotini tahlil etishga bag'ishlangan. Bolalarni asrab olish ularning manfaatlarini ta'minlash, xayfsiz va barqaror oilaviy muhit yaratish maqsadlarini ko'zlab huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada farzandlikka olish jarayonida mahalliy davlat hokimiyati organlarining roli va jarayonni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ko'rib chiqiladi.

Shu bilan bir qatorda, ushbu institutning zamonaviy amaliyotida uchrayotgan muammolarga ham to'xtalib o'tiladi. Jumladan, bola asrab olishning byurokratiya bilan murakkablashuvi, shuningdek, bolaning qaysi oiladan kelib chiqqanligi faktini belgilashdagi qiyinchiliklar va boshqalar xususida so'z boradi.

***Kalit so'zlar:** farzandlikka olish, classic adoption, poor law adoption, poor law guardians, bolaning identifikatsiyasi, "Farzandlikka olish to'g'risida"gi akt, bola asrab olishdagi muammolar.*

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the legal foundations and practice of the adoption process in English law. Adoption of children is a process carried out through legal mechanisms with the aim of ensuring their interests and creating a safe and stable family environment. This article examines the role of local government bodies in the adoption process and the legislative acts regulating the process.

At the same time, it also touches on the problems encountered in the modern practice of this institution. In particular, it discusses the complexity of the adoption process with bureaucracy, as well as the difficulties in determining the fact of the child's family origin, etc.

***Keywords:** adoption, classic adoption, poor law adoption, poor law guardians, child identification, Adoption Act, problems in adoption.*

KIRISH

Umumiy qilib olganda, bolani farzandlikka olish tadbirlari ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni barqaror, doimiy uy-joy va normal oilaviy hayot bilan ta'minlash uchun ko'riladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 3(1)-moddasida bolalarning "eng yaxshi

manfaatlari” ularga nisbatan harakatlarda “birinchi darajali e’tibor”da bo’lishini talab qiladi. Shuningdek, konvensiyaning 21-moddasi farzandlikka olish konsepsiyasini tan olgan davlatlarga bolalarning “qiziqishlari va manfaatlari” birinchi navbatda e’tiborga olinishini shart qilib qo’yadi. Angliya va Shotlandiyaning farzand asrab olish to’g’risidagi qonunlari, ikkalasi ham bolalarning eng yaxshi manfaatlari va qiziqishlariga shunchaki sirdan qarashdan, ularga e’tibor qaratish kerak bo’lgan asosiy qatlam sifatida yondashishga o’tib bo’lishdi.¹ Shu bilan bir qatorda, aytib o’tish kerakki, bolalarni asrab olish xususiyatlari ham yillar davomida o’zgarishlarga uchradi. Natijada, asrab olingan bolalar endi ota-onalarining iqtisodiy qiyinchiliklar va nikohsiz yoki boshqa omillar sababli uyat, isnodan qochish uchun tashlab ketilgan chaqaloqlari bo’lmay qolishdi. Bugungi kunda, asrab olinayotgan ko’pgina bolalarning yoshi kattaroq hisoblanadi. 2017-yil 31-mart hisobi bo’yicha asrab olinayotgan bolalarning o’rtacha yoshi 3 yosh-u 4 oylikni tashkil etadi.² Shuningdek, farzandlikka asrab olish hamma uchun mumkin bo’lgan holatdan, bola katta qilishga uquvsiz bo’lgan turmush qurmagan ayol yoki juftlik uchun ma’lum bir cheklovlar orqali ruxsat berish shakligacha o’zgarib bordi.

Ushbu maqolada ingliz huquqida bolani farzandlikka olish asoslari, asrab olinayotgan shaxsning qiziqish va istaklarini birinchi o’ringa qo’ygan holda, Angliyada qabul qilingan turli aktlar doirasida ko’rib chiqiladi. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda ushbu mavzu doirasida kuzatilayotgan muammolar haqida ham so’z yuritiladi. Maqolaning I qismida ingliz huquqi bo’yicha farzandlikka olish haqida umumiy tushunchalar va uning tarixi haqidagi fikrlar ilgari surilsa, II qismi qonuniy aktlar orqali mavzuga chuqurroq kirib boradi va III qismi farzandlikka olishda kelib chiqayotgan muammolarga bag’ishlanadi.

I Ingliz huquqida farzandlikka olish bo’yicha umumiy tushunchalar va uning tarixi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyasining 3-moddasida “bolalar bilan bog’liq barcha harakatlarda ularning manfaatlari va qiziqishlari birinchi o’rinda turadi” deya ko’rsatilgan. Ushbu konvensiyaning 21-moddasida esa “farzand asrab olish huquqini tan olgan yoki unga ruxsat bergan ishtirokchi-davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi o’rinda bo’lishini ta’minlaydilar” deya ta’kidlanadi. Ya’ni, 3-moddada “primary consideration” atamasi ishlatilgan bo’lsa, 21-moddada “paramount consideration” atamasidan foydalanilgan. Sharhlanishi kerak bo’lgan masala ham aynan shunda.

¹ Adoption and Children Act 2002, s. 1 (England); originally Children (Scotland) Act 1995, s. 95, but see now Adoption and Children (Scotland) Act 2007, s. 14 (Scotland).

² Department for Education. Children looked after in England (including adoption), year ending 31 March 2017. SFR 50/2017.

UNICEFning Implementation Handbook nomli qo'llanmasi konvensiyaning 21-moddasi 3-modda tamoyilini aniq shaklda ifodalasada, 21-modda 3-moddadagi "birlamchi" e'tibordan ko'ra bolalarning ko'proq manfaatlarini e'tiborga olishni talab qiladi deb ko'rsatadi.³ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari bo'yicha bo'yicha qo'mitasi farzandlikka olish uchun "primary" so'zini ishlatgan bo'lishiga qaramay, 3-modda bolalarning eng yaxshi manfaat va qiziqishlarini yanada mustahkam o'rnatadi degan xulosaga kelgan.

Bevosita Angliyadagi vaziyatga to'xtaladigan bo'lsak, 1920-1970-yillar mobaynida farzandlikka asrab olish surati – "classic adoption", ya'ni farzandsiz juftlikning noma'lum bolani asrab olishi shaklida bo'lgan. Lekin o'sha davrlarda ham bu unchalik oddiy bo'lmagan. XXI asrgacha yolg'iz odamlarning katta qismi, hatto ba'zi erkaklar ham bolalarni asrab olishgan.⁴ 1950-yillarda esa noqonuniy asrab olingan bolalarning uchdan bir qismi otalari yoki onalari tomonidan mustaqil ravishda yoki ota-onasidan biri tomonidan yangi jufti bilan birgalikda asrab olingan. Shuningdek, bu davrda asrab olinganlarning yana bir guruhi ajrashgan ota-onasining yangi jufti tomonidan tarbiyaga olinganlar sifatida shakllangan.

Ushbu klassik davrdan oldin, XX asr boshlarida asrab olishning boshqacha shakli mavjud edi. Bu "poor law adoption" deb nomlanib, "poor law guardians" - mahalliy hokimiyat ijtimoiy xizmatlari prekursorlari – tashlab ketilgan yoki yetimlar yokida ota-onalari nogiron yoki bo'lmasam ularni nazorat qilish uchun noloyiq deb topilgan insonlarning bolalari uchun ota-onalik huquqlarini o'z zimmlariga olishlari mumkin edi.⁵ Bu borada kam tadqiqot ishlari olib borilganiga qaramay shu narsa aniqki, ko'pchilik bolalarning bu tarzda asrab olinishiga "ota-onalarining e'tiborsizligi" sabab bo'lgan. Ushbu bolalarning aksariyati uzoq muddatga asrab oluvchi ota-onalar tomonidan tarbiyalanishi mumkin bo'lgan, ammo rasmiy jihatdan, ular yiliga kamida ikki marta tashrif buyurishi shart bo'lgan "poor law guardians"larning vasiyligi ostida qolishgan. Lekin 1920-yillardan boshlab "poor law adoption" asosida vasiylikka olish pasayib bordi. Buning sababi sifatida, hattoki Angliya Sog'liqni Saqlash vazirligi tomonidan "poor law adoption" asosida farzand asrab olish qoidalari yumshatilgan bo'lishiga qaramay, "bola o'stirish uchun munosib ota-onalarni topish qiyinligi" keltirib o'tilgan.

Umuman olganda, 1926-yilgacha Britaniya imperiyasi tarkibiga kiruvchi mamlakatlar va sobiq mustamlakalardan farqli o'laroq, Birlashgan Qirollik hududida bola asrab olishga doir qonunchilik mavjud bo'lmagan. Ushbu masalaga doir ilk

³ Ibid., p. 295. See also Committee on the Rights of the Child, General Comment No 7 (2005): Implementing Child Rights in Early Childhood (CRC/C/GC/7/Rev.1, 2006) at [36(b)].

⁴ <https://www.historyandpolicy.org/docs/dfe-jenny-keating.pdf>

⁵ <https://www.historyandpolicy.org/docs/dfe-jenny-keating.pdf>

qonun hujjati aynan 1926-yilda qabul qilingan “Bolalarni asrab olish to’g’risida’gi akt bo’lgan va u Angliya va Uels hududlarida amal qilgan. Keyinchalik, 1929-yilda Shimoliy Irlandiyada va 1930-yilda Shotlandiyada xuddi shu nomdagi aktlar qabul qilingan.

1920-yillar Birlashgan Qirollikda ajralish va vasiylik, ayollarga turli xil kasblarni egallashlariga ruxsat berish, farzandkushlikka nisbatan qattiqroq munosabat va boshqa masalalar bo’yicha ichki qonunchilikni isloh qilish davri bo’ldi. Shu bilan birga, 1928-yilda ayollarga saylovlarda erkaklar bilan bir xil asoslarda ovoz berish huquqi berildi va bola asrab olishga doir qonunchilik aktlari ham ushbu islohotlarning bir qismi sifatida qamrab olindi.

Bu islohotlar natijasida, birinchi marta, farzandlikka oluvchi ota-onalarga bolasini saqlab qolish maqsadida qonuniy huquq olish uchun sudlarga murojaat qilishlariga ruxsat berildi. Shuningdek, qonun farzand asrab oluvchilar 25 yoshdan kichik bo’lmasligi va boladan kamida 21 yosh katta bo’lishlari kerakligini belgiladi. Shuningdek, qonun er-xotinlar farzand asrab olish uchun birgalikda ariza berishlari yoki arizada faqat bitta nomni ko’rsatishlari mumkinligini ham belgilab qo’ydi. Shu bilan birga, yolg’iz erkaklar uchun qiz bolalarni “alohida holatlar”dan tashqari asrab olishlariga taqiq qo’yildi. Shuningdek, qonunga ko’ra, agar farzand asrab oluvchilar o’zlariga merosxo’r tayinlamagan holda vafot etgan bo’lsalar, ularning asrab olgan bolalari mulklaridan meros olish huquqiga ega bo’lmaydilar. Britaniya qonunchiligi farzand asrab olish jamiyatlari xohlaganidek, ota-onalik qilishni to’xtatgan va asrab olingan bolalar bir-birini hech qachon izlab topmasliklarini ko’zlab, asrab olishni butunlay sirligicha qoldirmadi. Ammo bu narsaning amalga oshirishini ular uchun qiyin qilib qo’ydi.

Ushbu islohotlar ham farzand asrab oluvchilarga farzandlarini qonuniy ravishda asrab olishlari uchun majburlash holatlarini nazarda tutmasdan, norasmiy asrab olish davom etishiga sharoit yaratib berdi. Undan tashqari, sudlar uchun ko’pincha kam miqdorda mavjud bo’lgan vasiylarning hisobotidan tashqari, sud jarayonidan oldin ham, keyin ham farzand asrab olish jarayonini tartibga soladigan qonun-qoida mavjudsizligicha qoldi.

Shunday qilib, to’liq farzandlikka asrab olish faqat Birinchi jahon urushidan keyin qonunlarga kiritildi. O’sha vaqtda bunday turdagi qonun-qoidalar nafaqat Britaniyada, balki Fransiya huquqiy tizimida ham paydo bo’lgan. Garchi bundan oldin farzandsiz er-xotinlar yetim yoki tashlab ketilgan bolalarni qabul qilishgan bo’lsada, bu norasmiy kelishuvlar shaklida bo’lgan. Hech qanday qonuniy jarayon er-xotinga, hatto yolg’iz shaxsga ham qarindosh bo’lmagan voyaga yetmagan bola bilan o’zaro munosabatlarni o’rnatish huquqini bermagan. Farzand asrab olishning qonuniy

hujjat ko'rinishidagi shakli yo'qligi sababli, bolaning asrab oluvchi ota-onalari har doim bolaning biologik ota-onasi kelib, uni qaytarib olishni so'rashi xavfi ostida bo'lishgan. "Bolalarni asrab olish to'g'risida"gi 1926-yilgi qonunga qadar, farzand asrab olish umumiy huquqning ota-onalar huquqlari va majburiyatlari daxlsizligi va merosxo'rlik qoidalariga zid edi. Hatto XIX asr oxiridan boshlab Britaniya hukumati tomonidan qabul qilingan bolalarni himoya qilish bo'yicha turli xil choralar ham farzand asrab olishni o'z ichiga olmagan. Ushbu masalani qayta ko'rib chiqishga asoslardan biri sifatida Birinchi jahon urushi davomida 800,000 britaniyalik askarning halok bo'lishi va natijada urush yetimlari sonining haddan ziyod ko'payishi qonun ishlab chiquvchilarni oldinga siljishga majbur qilgani ko'rsatib o'tiladi.⁶

To'liq farzandlikka olish Angliya va Uelsda 1926-yilda qabul qilingan "Bolalarni asrab olish to'g'risida"gi qonun (1929-yilda Shimoliy Irlandiyada va 1930-yilda Shotlandiyada) bilan amalga kiritilganligini aytib o'tdik. Birinchi jahon urushidan keyin xususiy xayriya tashkilotlari bolalarni barqaror, hurmatli oilalarga joylashtirishni tashkil qila boshladilar. 1920-yillarning boshidan boshlab ushbu ixtiyoriy uyushmalar, jumladan, Bolalarni asrab olish milliy assotsiatsiyasi (NCAA), Milliy farzand asrab olish jamiyati (NAS) va turmushga chiqmagan onalar va ularning bolalari uchun milliy kengash (NCUMC) asrab olingan bolalarga huquqiy maqom berish uchun qonuniy hujjat qabul qilishni targ'ib qilishdi. Ularning maqsadi qonun "bolaning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlab" farzandlikka olish imkonini berishi va vositachi sifatida faoliyat yurituvchi xayriya tashkilotlari umumiy huquqqa rioya qilishlari kerak edi.

Angliya va Uelsda rasmiy farzand asrab olish Ikkinchi jahon urushigacha xayriya tashkilotlarida ko'ngillilar tomonidan tartibga solinadigan masala bo'lib qolgan bo'lib, 1939-yilda qabul qilingan "Bolalarni asrab olish to'g'risida"gi qonun ikkinchi jahon urushidan keyin ham amalda qo'llanilmasdan qolib ketgan va 1948-yilga kelib ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilingan bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari nazorati ostida mustaqil, hech qanday agentlik yoki tashkilotga bog'liq bo'lmagan insonlarga farzand asrab olishga ruxsat bergan. Ushbu o'zgarishni hisobga olmaganda, Angliya va Uelsdagi farzand asrab olish tizimi 1976-yilgi "Farzand asrab olish to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilinguniga qadar deyarli bir xil bo'lib qoldi.⁷

Angliya va Uelsda farzand asrab olish 1976-yildagi "Farzand asrab olish to'g'risida"gi qonun bilan yanada isloh qilindi. Undan tashqari, ingliz huquqi 1989-yildagi "Bolalar to'g'risida"gi qonun bilan islohotga uchragan bo'lib, sudlar bolaning

⁶ <https://shs.hal.science/halshs-01571262/document>

⁷ <https://shs.hal.science/halshs-01571262/document>

aniqlanishi mumkin bo'lgan istaklari va xohishlarini, uning yoshi va fikrlashini inobatga olgan holda, bolaning eng yaxshi manfaatlarini ko'zlab, farzandlikka olish to'g'risida yakuniy qarorni qabul qilishini nazarda tutadi. Shuningdek, 1999-yilda "Farzand asrab olish to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilingan bo'lib, Buyuk Britaniya hukumatiga Bolalarni himoya qilish bo'yicha Gaaga konvensiyasini va davlatlararo farzand asrab olish bo'yicha kelishuvlarni ratifikatsiya qilish imkonini berish uchun davlatlararo farzandlikka olish bilan bog'liq ba'zi qoidalarni o'zgartirdi.⁸ 2002 va 2014-yillardagi "Farzandlikka olish va bolalar to'g'risida"gi qonunlar (1976-yildagi qonun o'rniga) bolalarni asrab olish darajasini oshirish maqsadida mahalliy va davlatlararo farzandlikka olish to'g'risidagi ingliz qonuni va kelishuvlarini modernizatsiya qiluvchi eng so'nggi hujjatlar hisoblanadi.

II QONUNY AKTLAR

Dastlab, 1926-yilgi qonundan boshlasak, ushbu qonun bir qator muhim qoidalarni o'z ichiga olgan. Jumladan, farzand asrab olishga cheklovlar nazarda tutilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- 1) Ariza beruvchi 25 yoshdan kichik bo'lsa yoki u farzandlikka olinuvchidan kamida 21 yosh katta bo'lmasa;
- 2) Agar arizachi yolg'iz erkak bo'lsa va farzandlikka olinishi so'ralayotgan shaxs qiz bola bo'lgani holda, agar ruxsat etilgan alohida holatlar mavjud bo'lmasa;
- 3) Farzandlikka olish haqidagi qaror bolaning ota-onasi, vasiysi yoki uning uchun javobgar hisoblanuvchi kimsaning roziligisiz chiqarilmaydi;
- 4) Farzand asrab olish haqida ariza bergan juftlikdan birining roziligi bo'lmasa;
- 5) Farzand asrab olish bo'yicha ariza beruvchi shaxs Angliya yoki Uelsda doimiy istiqomat qilmasa, ya'ni resident hisoblanmasa bolani farzandlikka berish haqida qaror chiqarilmaydi.⁹

Shuningdek, ushbu aktda farzandlikka olish amalga oshirilganidan so'ng, ota-onaning, vasiyning asrab olingan bolaga oid barcha huquqlari, majburiyatlari, shu bilan birgalikda, uning ta'limi va boshqa ehtiyojlarini qondirish vazifalari uni asrab olgan insonlarga o'tishi belgilab qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Bu akt natijasida 1930-yillar o'rtalarigacha har yili 5000 nafar bolalar huquqiy jihatdan asrab olindi. Ammo bolalarni asrab olish uchun tanlangan yo'l haqida xavotirlar kuchayib bordi. Chunki, bu ishlarning hammasi juda oddiy va yaxshi rejalashtirilmagan, pala-partish holatda edi. Hatto eng obro'li farzand asrab olishga ko'maklashuvchi jamiyatlar ham bo'lajak farzand oluvchilar bilan kamdan-kam

⁸ <https://shs.hal.science/halshs-01571262/document>

⁹ <https://vlex.co.uk/vid/adoption-of-children-act-808098765>

holatda suhbat o'tkazib, ularning yashash sharoitlarini ko'zdan kechira oldilar va ba'zan juda oddiy tekshiruvlar bilan cheklanib qolishdilar.

Shuningdek, bu aktdan so'ng, mashhur onalik uylari farzandni dunyoga keltirgan ota-onadan yoki yolg'iz onadan to'lov evaziga chaqaloqlarini farzand asrab oluvchilarga topshirish amaliyotiga o'tib oldilar. Undan tashqari, garchi aktda bunga yo'l qo'yib bo'lmasligi ko'rsatilgan bo'lsada, bolalarni xorijga, xususan hukumati tomonidan farzand asrab olish taqiqlangan Niderlandiyaga hech qanday tekshiruv va kafolatlarsiz jo'natish hollari uchrab turdi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun 1939-yilda qabul qilingan akt natija bermagach, 1948-yilda yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. Bu qonun ham o'zida bir qancha qoidalarni jamlagan. Jumladan, mahalliy hokimiyat organlari o'z qaramog'idagi bolalarni turar-joy bilan ta'minlash majburiyatiga ega ekanliklari, shuningdek, 1926-yilgi aktni to'ldiruvchi, agar chaqaloqning ota-onasi, vasiysi va unga nisbatan ota-onalik huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs bo'lmasa, sud biron-bir shaxsning arizasiga ko'ra, ushbu ariza bilan murojaat etgan shaxsni vasiy qilib tayinlashi mumkinligi¹⁰ kabi qoidalar paydo bo'ldi.

Umuman olganda, 1940-yillarning oxiridagi qonunchilik farzand asrab olish jarayonini soddalashtirib berdi, endi o'z bolasidan voz kechgan ota-ona farzandini kim asrab olganini bilishining imkoni bo'lmay qoldi.

Lekin, bu ham farzand asrab olishning tartibsiz davom etishini o'zgartirmadi. Bolani farzandlikka berishning faqat chorak qismigina farzandlikka olish jamiyatlari tomonidan amalga oshirildi. London okrug kengashidan tashqari, deyarli hech qaysi mahalliy hokimiyat organi keng miqyosda farzand asrab olish jarayoni bilan shug'ullanmadi, shu sababli ko'pgina farzand asrab olishlar davlat organlaridagi xodimlarning do'stlari, tanishlari yoki professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, misol uchun shifokorlar tomonidan amalga oshirilgan norasmiy kelishuvlar shaklida qoldi.

1954-yilda farzand asrab olish bo'yicha Hurst qo'mitasi mahalliy hokimiyat organlarini bolani farzandlikka berish jarayonida yanada faol bo'lishga chaqirdi hamda har qanday bola, hatto nogiron bo'lsa ham farzandlikka berilishi kerak degan qarashni ilgari surdi. Chunki, o'sha vaqtda faqat sog'lom oq tanli bolalar asrab olish mumkin bo'lganlar sifatida ko'rilgan.

Keyingi farzand asrab olishga doir qabul qilingan hujjat 1976-yilgi akt hisoblanib, ushbu jarayonni professional holatga keltirish va tartibga solishga qaratilgan.

¹⁰ <https://www.education-uk.org/documents/acts/1948-children-act.html>

Bu qonun farzand asrab olish jamiyatlari (asrab olinishi mumkin bo'lgan bolalar soni kam bo'lgani uchun ta'siri allaqachon pasaygan bo'lsada) mahalliy hokimiyat organlari bilan yaqindan hamkorlik qilishlari va ular yanada qa'tiylashgan tasdiqlash mezonlariga bo'ysunishlarini ko'zlagan edi. Darhaqiqat, ko'plab kichik jamiyatlar keyinchalik yopildi, omon qolganlari esa professional faoliyat olib bora boshlashdi. Aytib o'tish kerakki, ushbu qonun farzand asrab olish masalasida ancha aniq qoidalarni belgilab berdi. Jumladan, turmush qurgan juftlik tomonidan yoki yolg'iz inson tomonidan asrab olish yokida bolaning oldindan uni asrab olmoqchi bo'lgan insonlar bilan yashaganligi fakti, ota-onalarni roziligi, bu borada buyruq chiqarish, shuningdek, 18 yoshda bola voyaga yetganligi munosabati bilan undan ma'lum bir cheklovlarni olib tashlash va boshqa masalalar chuqurroq yoritib berilgan.

Shunga qaramay, 2002-yilda mahalliy va davlatlararo farzand asrab olishning huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilish, xususan 1976-yildagi "Farzand asrab olish to'g'risida"gi qonun qoidalarini almashtirish uchun yangi akt qabul qilingan.

Farzandlikka olish to'g'risidagi qonunni 1989-yildagi "Bolalar to'g'risida"gi qonunning mavjud qoidalariga muvofiqlashtirish, farzand asrab olish bilan bog'liq barcha qarorlarda bolaning farovonligini ta'minlash eng muhim masala deb olingan.¹¹ Ushbu akt quyidagi qoidalarni o'z ichiga olgan:

- 1) Mahalliy hokimiyat organlariga farzand asrab olish xizmatini yuritish va farzand asrab olishni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini yuklash;
- 2) Farzandlikka olish to'g'risidagi buyruqlarni yolg'iz shaxslar, er-xotinlar va turmush qurmaganlar foydasiga chiqarishni ta'minlash;
- 3) O'z arizasini adolatsiz rad etildi deb hisoblaydigan bo'lajak farzand asrab oluvchilar uchun yangi mustaqil tekshiruv mexanizmlarini joriy etish;
- 4) Farzand asrab olishni tashkil etish va bolalarni asrab olish uchun reklama bo'yicha cheklovlarni joriy etish;
- 5) Farzandlikka olish to'g'ri bo'lmagan, lekin tug'ilgan oilasiga qayta olmaydigan bolalar uchun yangi maxsus vasiylik tartibini joriy etish va boshqalar.

III FARZANDLIKKA OLISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR

Ingliz huquqi tarixi davomida farzandlikka olish jarayoni turli aktlar orqali takomillashtirib borilganiga qaramay, ba'zi bir muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, bolani himoyasi va oiladagi huquqi masalalari o'rtasida nozik muvozanat mavjud bo'lib, uni saqlash juda muhim hisoblanadi. Bolani o'z oilasidan asossiz

¹¹ https://www.compactlaw.co.uk/pages/the-adoption-and-children-act-2002-guide-to-the-act?srsId=AfmBOoqi8lqfi8hWjU3XHUPb8s6Wvn9LUuk9A0Jat2_qDOyUSw5Quynx

ravishda butunlay olishdan tortib, uni o'z uyiga qaytishiga ruxsat berishgacha sud qarorlarining oqibati juda katta bo'lishi mumkin.

Asrab olingan bolalarning aksariyati o'zlari tug'ilgan oilalaridan zo'ravonlik yoki qarovsizlikka duchor bo'lganlaridan keyin chiqarib yuboriladi va mahalliy hokimiyat nazorati ostiga o'tishadi. Hozirgi ingliz huquqidagi bolalarni himoya qilish tizimida farzandlikka olishning muqobil yo'li, agar bolaning oila a'zolari iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli unga g'amxo'rlik qila olmasalar, bola uzoq muddatli homiylik asosida boshqa oilaga berilishi mumkin.¹²

Asrab olinish bolalar uchun barcha muammolarni hal qilmasligi mumkin. 2006-yilda, Angliyada hukumatning mehnat bo'limi parvarishdagi bolalar ko'rsatayotgan yomon natijalarni namoyish qiladigan "Care matters" hisobotini e'lon qildi. Unga ko'ra, 19 yoshgacha bo'lgan qarovsiz qolganlarning atigi 19% litsey yoki kollejdada va 6% igina oliy ta'limda tahsil olishi; 15-17 yoshdagi qizlar qolgan qizlarga qaraganda uch baravar ko'proq miqdorda o'smir onalarga aylanishgani; 30% dan ortiq asrandilar, 19 yoshlarida ta'limga ham ishga ham ega emasligi aniqlandi.¹³

Oilaviy sudlar bola bilan keyinchalik nima sodir bo'lishi haqida qiyin qarorlar qabul qilishlari kerak. Ushbu sud jarayonlarida, ko'pincha bolani uyida qoldirish yoki uni tug'ilgan oilasidan butunlay olish va farzand asrab oluvchilarga topshirish o'rtasidagi qarorlarda keskin farq ko'zga tashlanadi.

G'amxo'rlik jarayonida, farzand asrab olish ko'pincha "draconian" variant sifatida ko'rib chiqiladi. Ya'ni bu bola va uning haqiqiy oilasi o'rtasidagi munosabatlarni uzib qo'yadi. Sudlar oldida, farzand asrab olishni zarurat sifatida qabul qilish kerakmi yoki bolani o'z oilasida parvarish qilish imkonini beradigan qo'llab-quvvatlash xizmatlari haqiqatda uni xavfsiz ulg'ayishiga olib keladimi yoki yo'qmi degan masala turibdi. Buning uchun, sudlar ushbu qo'llab-quvvatlash xizmatlarini o'rganishlari va ma'lum bir ishda bolani farzandlikka olishga ruxsat berish uchun aniq dalillarni topishi kerak.

Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining oilalardagi noxush holatlarda erta aralashuvi ko'lami ham qoniqarli emas. Bolalar xizmatlari direktorlari assotsiatsiyasi (ADCS) "uydagi zo'ravonlik, ota-onalarning ruhiy salomatligi va ularning giyohvand moddalarni suiste'mol qilishi bolalarning ijtimoiy g'amxo'rlik xizmatlariga olinishi uchun asosiy va o'sib borayotgan keng tarqalgan sabablar sifatida qolayotganligi"ni ta'kidlab o'tdi.¹⁴

¹² [adoptionthecurrentchallenges.pdf](#)

¹³ Department for Education and Skills. Care Matters: Transforming the Lives of Children and Young People in Care, 2006.

¹⁴ The Association of Directors of Children's Services Ltd. Safeguarding Pressures Phase 5, December 2016, page 3.

Buyuk Britaniyaning bolalar bo'yicha komissarlari "bolalarni imkon qadar davlat qaramog'iga qabul qilmaslik uchun erta aralashuv zarur" degan fikrda to'xtalishadi. Oilalardagi yuqorida sanab o'tilgan vaziyatlar vujudga kelganda tejamkor choralardan foydalanish, bolalarga va o'z navbatida, ota-onalarga yordam hajmini kamaytirib yuboradi.

Shuningdek, yillar davomida farzand asrab olish sirlari saqlab kelinib, bolalar o'zlarning oilaviy kelib chiqishlari haqida bilishmagan. 70-yillar davomida, farzand asrab olishga nisbatan munosabat o'zgarib borayotgani, oilaviy va ijtimoiy masalalarda ko'proq ochiqlik va farzand asrab oluvchiga nisbatan munosabat yaxshi tomonga og'ayotgani sezildi. Asrab olingan bolalarni ularning oilaviy kelib chiqishi haqida xabardor qilish amaliyoti o'zgargan bo'lsada, ularning haqiqiy ota-onalari tomonidan asrab oluvchilarga nisbatan salbiy munosabat bildirilishi va hayotlariga halaqit berilishi mumkinligi haqida tashvishlar doimo mavjud bo'lib keldi.¹⁵ Shu sababdan ham ingliz oila huquqida bu masala doimo muammoli bo'lib kelgan. O'tgan asr davomida ota-onalar o'zlarining farzandlari qayerda va kim bilan yashayotganliklari haqida bilishlari qiyin bo'lgan va o'z navbatida, ularning hayotiga aralashish imkoniyatlari ham kam bo'lgan ersa, hozirgi kunga kelib zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning qayerdaligini aniqlash unchalik muammo tug'dirmayapti.

To'g'ri, ijtimoiy tarmoqlar nisbatan yaqinda paydo bo'lgan va ularning farzand asrab olish jarayoniga ta'sirini salbiy baholash uchun hali erta. Biroq, internet, ijtimoiy tarmoqlar va bolalarni himoya qilish bilan bog'liq ko'plab boshqa masalalarda bo'lgani kabi, bu sohada bolalar bilan erta bosqichdanoq ochiq muhokama o'tkazish tavsiya etiladi.

IV XULOSA

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, ingliz huquqida farzandlikka olish masalalari yillar davomida o'zgarib borgan. Dastlab, asosan xususiy tashkilotlar tomonidan norasmiy kelishuvlar shaklida olib borilgan faoliyat, sekin-asta mahalliy organlar nazorati ostidagi qonuniy jarayonga o'zgarib borgan.

Ingliz huquqida farzandlikka olish jarayonlari, birinchi navbatda, bolaning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda olib boriladi. Ushbu jarayon bolaning xavfsizligi, uning ruhiy va jismoniy sog'lom bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek, mehribon va bag'rikeng oilaviy muhitda o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Huquqiy ishlar davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat qilinib, noqonuniy farzandlikka olish holatlarini oldini olishni ko'zlaydi.

¹⁵ Children looked after by placement statistics, year ending 31 March 2017:
<https://www.gov.uk/government/statistics/children-looked-after-in-england-including-adoption-2016-to-2017>

Shunga qaramay, farzandlikka olish bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, asrab olingan bolalarning savodxonlik va ish bilan ta'minlanganlik darajasi pastligicha qolmoqda. Shuningdek, yosh qizlar o'rtasidagi erta onalik hollari ham asrab olinganlar orasida anchagina yuqori foiz ko'rsatkichlarini ko'rsatmoqda.

Undan tashqari, farzandlikka olinganlarning identifikatsiya huquqi, ya'ni ular o'zlarining biologik oilasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari ham ko'pgina munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu esa farzandlikka oluvchi oilalarning manfaatlari bilan bolaning shaxsiy huquqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash zaruriyatini namoyon qilmoqda.

Shunday qilib, farzandlikka olish jarayonida bolaning shaxsiy manfaat va qiziqishlarini asosiy o'ringa qo'ygan holda, bu boradagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish va farzand asrab oluvchilar bilan bir qatorda, bolaga ham psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarining sifatini oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adoption and Children Act 2002, s. 1 (England); originally Children (Scotland) Act 1995, s. 95, but see now Adoption and Children (Scotland) Act 2007, s. 14 (Scotland).
2. Department for Education. Children looked after in England (including adoption), year ending 31 March 2017. SFR 50/2017.
3. Ibid., p. 295. See also Committee on the Rights of the Child, General Comment No 7 (2005): Implementing Child Rights in Early Childhood (CRC/C/GC/7/Rev.1, 2006) at [36(b)].
4. <https://www.historyandpolicy.org/docs/dfe-jenny-keating.pdf>
5. https://www.compactlaw.co.uk/pages/the-adoption-and-children-act-2002-guide-to-the-act?srsltid=AfmBOoqi8Iqfi8hWjU3XHUPb8s6Wvn9LUuk9A0Jat2_qDOyUSw5Quy_nx
6. Department for Education and Skills. Care Matters: Transforming the Lives of Children and Young People in Care, 2006.
7. The Association of Directors of Children's Services Ltd. Safeguarding Pressures Phase 5, December 2016, page 3.
8. Children looked after by placement statistics, year ending 31 March 2017: <https://www.gov.uk/government/statistics/children-looked-after-in-england-including-adoption-2016-to-2017>